

**INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA TERMINOLOGIYA VA KONSEPSIYA  
TUSHUNCHALARINING PARADIGMATIK TALQINI**

**Tosheva Dilbar Muzaffar qizi**  
Qarshi davlat universiteti talabasi

**Ilmiy rahbar: Nashirova Shahnoza Bo‘riyevna**  
Qarshi davlat universiteti Katta o‘qituvchisi, PhD

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada hozirgi davrda keng tarqalgan biror bir sohaga oid tamoyillar tizimi va asosi hamda leksikadagi ahamiyati, ayrim terminlarning lingvistik tadqiqi bayon etilgan. Ma’lum bir soha terminologiyasining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri ularning keng omma orasida ham hech qanday qiyinchiliksiz tushunilishi va ishlatilishidir. Shu nuqtayi nazardan, ushbu maqolada ingliz tilidagi terminlarning o‘zbek tili terminologiyasiga o‘xshash jihatlari, ularning kelib chiqishi tahlil etilgan.*

***Kalit so‘zlar:** terminologiya, konsepsiya, ilmiy til, sintaktik ibora, obrazlilik, leksik aloqalar, ilmiy-texnik adabiyot, maxsus terminlar.*

***Аннотация.** В данной статье описаны система и основы решений для области, широко используемой в современную эпоху, а также значение в лексике, лингвистическом исследовании некоторых терминов. Одной из уникальных особенностей терминологии определенной области является то, что ее легко понять широкой публике. С этой точки зрения в данной статье анализируется сходство терминов английского языка с терминологией узбекского языка, а также происхождение вывода.*

***Ключевые слова:** терминология, понятие, научный язык, синтаксическое выражение, образность, лексические отношения, научно-техническая литература, специальные термины.*

***Annotation.** This article describes the system and basis of solutions for a field that is widely used in the present era, as well as the importance in the lexicon, linguistic research of some terms. One of the unique features of the terminology of a certain field is that it can be easily understood by the general public. From this point of view, this article analyzes the similarity of terms in English to the terminology in Uzbek, and the origin of the conclusion.*

***Key words:** terminology, concept, scientific language, syntactic expression, imagery, lexical relations, scientific and technical literature, special terms.*

**KIRISH**

*Terminologiya (termin va ... logiya) — 1) leksikaning bir sohasi; muayyan fan, texnika, ishlab chiqarish. tarmog‘ining, san‘at, ijtimoiy faoliyat sohasining tegishli tushunchalar tizimi bilan bog‘liq terminlari majmui; 2) tilshunoslikning terminlarni o‘rganuvchi sohasi. Terminologiya tor ma’noda ma’lum bir sohaga oid maxsus leksika. Masalan, fizika terminologiyasi, ijtimoiy siyosiy terminologiya, mashinasozlik terminologiyasi kabi.*

*Terminologiya umumxalq tilining leksikasi negizida vujudga keladi, boyiydi. O‘z navbatida u, umumxalq tilining boyishi uchun xizmat qiladi. Terminologik leksika umumxalq tili leksikasining ajralmas qismi sifatida u bilan birga rivojlanadi, jamiyat va til taraqqiyotidagi barcha jarayonlarni boshdan kechiradi. Ma’lum bir soha*

yoki fan yuqori darajada taraqqiy etgandagina o'sha tilda maxsus terminologiya vujudga keladi.

Terminologiyaning rivojlanishi, boyish yo'llari har xil ya'ni boshqa tillardan so'z olish, yangi so'z yasash, ayrim fannatik kategoriyalarning leksikalashuvi, so'z birikmasining semantik bir butun holga kelib qolishi va boshqa. Bugungi kunda o'zbek terminologiyasining boyishi, asosan, boshqa tillardan so'z olish va ichki so'z yasash hisobiga ro'y bermoqda. U yoki bu soha terminologik tizimining barkarorligini belgilovchi asosiy omil uning tartibga solinganligi va muntazamligidir. Terminologiyaning o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Masalan, umumadabiy tilda sinonimiya, omonimiya va ko'p ma'nolilik tilning boyligi bo'lsa, terminologiyada bular salbiy hodisa hisoblanadi. Masalan, birgina tushunchani ifodalash uchun o'zbek tilida yarimo'tkazgich — chalo'tkazgich — nimo'tkazgich terminlari qo'llanmoqda. Bu, o'z navbatida, o'qish, o'qitish va axborot almashish jarayonini qiyinlashtiradi. Shu sababli ham terminologiyasi ma'lum darajada barqarorlashgan barcha tillarda terminlar doimiy tartibga solib turiladi. Tartibga solish ma'lum terminologik me'yorlar asosida amalga oshiriladi.

Terminologiya rivojida fan sohalariga oid maxsus lug'atlarni nashr qilib turish ham muhim ahamiyatga ega. O'zbek tili terminologiyasi ma'lum taraqqiyot yo'lini bosib o'tgan. O'zbek tili terminologiyasi sohasidagi ishlarni o'tgan asrning 50-yillarida O'zbekiston SSR Oliy Soveta Prezidiumi huzuridagi Til va terminologiya komiteta boshkargan (1931—1937-yillarda faoliyat ko'rsatgan), keyinchalik O'zbekiston Fanlar akademiyasi Til va adabiyot instituti terminologiya bo'limi (1964-yildan) olib bordi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Respublika atamashunoslik qo'mitasi 1988-yildan 2004-yilgacha o'zbek tili terminologiyasini tartibga solish va takomillashtirish bilan shug'ullanib keldi.

*Konsepsiya (lotincha conceptio – majmua, tizim) – 1) biror sohaga oid qarashlar, tamoyillar tizimi, fakt va hodisalarni tushunish, anglash va izohlashning muayyan usuli, asosiy nuqtai nazar; 2) adabiyotda – biror asarning asosiy g'oyasi. Konsepsiya badiiy asar mohiyatini, ijodkorning "meni"ni ifoda etadi. Biroq badiiy asar konsepsiyasi ayrim holatlarda muallifning subyektiv qarashlaridan keng qamrovli bulishi mumkin. Ba'zan muallif mo'ljaliga zid holat yuz bersa ham, mohiyat e'tibori bilan asar o'z konsepsiyasiga ko'ra muallifning badiiy-estetik olamiga tegishli bo'ladi. O'quvchining ma'naviy-ruhiy saviyasi, tarixiy shart-sharoitdan kelib chiqqan holda badiiy asar konsepsiyasi alohida ta'kidlanib, ochiq-oydin ifoda etiladi. Inson va borliq mohiyatiga ko'ra, konsepsiya bir butunlikni tashkil etadi. Masalani muayyan ijodkorning o'z konsepsiyasi yoki alohida olingan haqiqiy san'at asarining konsepsiyasi tarzida qo'yish ham mumkin. Boshqa jihatdan, badiiy asar konsepsiyasi*

unda tasvirlangan badiiy-estetik, obrazli dunyo orqali hayotni anglash mexanizmi – usuli bo'lib ham maydonga chiqadi. Umuman, konsepsiya badiiy asarning san'at, adabiyot va madaniyat tarixidagi o'rnini hamda o'quvchilar ommasiga ta'sir etish darajasini belgilaydi.

Ma'lumki, matnda maxsus terminlarning ko'p miqdorda bo'lishi, ayniqsa yaqinda yangi paydo bo'lganlari (neologizmlar) va hali lug'atlarda qayd etilib ulgurmagani tarjima amaliyotida sezilarli qiyinchiliklarni tug'diradi. Ilmiy-texnik adabiyot tilining bu qadar yangi terminlarga boyligi terminlar til lug'at tarkibining tabiatan harakatchan qatlami ekanligi bilan izohlanadi. Tilning lug'at tarkibi uzluksiz ravishda to'lib boradi va bu lingvistik hodisa fan va texnikaning rivojlanishi, ularning jamiyatdagi mavqeining oshishi hisobiga, so'nggi yillarda fan va texnika taraqqiyotining jadal sur'atlarda o'sishi natijasida yuzaga kelgan yangi tushuncha va hodisalarni atash, nomlash uchun yaratilgan yangi maxsus terminlar hisobiga yuz bermoqda. Odatda, mohiyat-maqсадiga ko'ra ilmiy-texnik adabiyot o'zida ilm-fan va texnikaning so'nggi yutuqlarini aks ettirishi kerak; neologizmlar esa jami leksikaning nisbatan katta foizini tashkil etadi. Umuman olganda terminologiya, xususan, texnik terminologiya umummilliy tilning bir qismini tashkil etadi. Unda, ayniqsa, fikr ifodalashning elliptik xarakteri yaqqol ko'zga tashlanib turadi va bu, birinchi navbatda, ilmiy aniqlik va qisqalik talablari nuqtai nazaridan sodir bo'ladi.

Texnik adabiyotning yana bir asosiy stilistik xususiyati – bu materialni bayon qilishning muhtasarligi va ifodalarning ravonligidir. Ingliz ilmiy-texnik tilining, va umuman, ingliz tilining xos xususiyatlaridan yana biri shuki, unda ma'noviy to'yinganlik gapning oxiriga qarab kuchsizlanib boradi. Rus tilida esa aks hodisa yuz beradi, ya'ni ma'noviy o'sish gapning boshidan uning oxiriga qadar rivojlanib boradi. O'zbek tili haqida yuqorida keltirilgan ikkala mulohazaning birortasini ham aytib bo'lmaydi, bizningcha bunga o'zbek tilida ko'p jihatdan gapning kesimiga urg'u berilishi ma'lum ma'noda ta'sir etsa kerak. Shunday qilib, ingliz tilida e'tiborni qaratish kerak bo'lgan jihat birinchi o'rinni egallasa, rus tilida esa, aksincha, so'nggi o'rinlarda turadi. O'zbek tili e'tiborning teng taqsimlanishini talab qiluvchi gaplardan tashkil topadi. Ilmiy-texnik adabiyotga xos bo'lgan qisqalik va aniqlik kabi xususiyatlardan tashqari, texnik matn texnik xarakterdagi obrazli frazeologik birikmalarga boyligi bilan ham ajralib turadi. Masalan, the wire is alive – provod pod tokom – sim elektr kuchlanish ostida, dead engine landing – posadka s vyklyuchennym dvigatelem – o'chiq, to'xtatilgan dvigatel bilan qo'nish shular jumlasidandir. Bunday hollarda to'laqonli (adekvat) tarjima mazmunning haqiqatdan aniq berilishidan tashqari asl nusxadagi obrazlilikning barcha unsurlarini o'quvchiga yetkazilishi hisobiga erishiladi. Ilmiy-texnik adabiyotning o'ziga xos xususiyati unda

maxsus terminlarning katta miqdorda mavjudligi bo'lsada, u o'z ichiga umumiste'moldagi so'z va birikmalarning kattagina foizini oladi. Umumiste'moldagi so'zlarning anchagina qismini ko'p ma'noli so'zlar tashkil etadi. Ba'zi hollarda ko'p ma'noli so'zlarning ma'nosini aniqlash uchun birgina ularning grammatik alomatlarini bilishning o'zi kifoya qilmaydi, ularning leksik aloqalarini bilish ham birdek zarur bo'ladi. Bunday ko'p ma'noli so'zlarning tipik vakili sifatida ingliz texnik terminologiyasida keng qo'llaniladigan to suggest, to stem, to claim, to understand kabi leksik birliklarni keltirish mumkin. Texnik matn tarjimasining yana bir muhim tomoni shundaki, tarjimon ko'p hollarda yangi tushunchalarni atash uchun terminlarning boshqa bir tildagi muqobillarini o'zi yaratishiga to'g'ri keladi. Aynan terminlar texnik materialni tarjima qilishda qiyinchilik tug'diradi. Badiiy adabiyotni tarjima qilishda chet tilidagi matnni tushunish, odatda, u qadar qiyinchilik tug'dirmaydi va asosiy muammo sifatida asl nusxaning estetik va g'oyaviy dunyosini, manzarasini tarjima tilida qayta yaratish yuzaga keladi. Ayni paytda chet tilidagi ilmiy yoki texnik matnni tushunish esa odatda bir qator u yoki bu darajada ahamiyatga molik bo'lgan qiyinchiliklar bilan bog'liq bo'ladi. Bunda dastlabki bosqichlarda, avvalombor, chet-tili grammatikasining o'ziga xosliklari qiyinchilik tug'diradi. Keyinchalik esa tarjimon mahoratining oshishi bilan grammatik qiyinchiliklar ortga chekinadi, ammo noma'lum terminlarning ma'nolarini aniqlash esa hali hamon zarurat bo'lib qolaveradi. Har doim ham noma'lum termin ma'nosini topish mumkin emas. Ko'pincha tarjimon kontekst va terminning maxsus struktur(morfo)-semantik tahlilini qilib chiqishga majbur bo'ladi.

Texnik adabiyotda uchraydigan iboralar ikki turga mansub: biri – umumxalq leksikasi, qolganlari esa – maxsus (ilmiy yoki yasama) terminlardir. Xo'sh, termin o'zi nima, u boshqa so'zlardan nimasi bilan farq qiladi? Keling, misol uchun ikki guruhga mansub so'z va iboralarni taqqoslab ko'raylik: qog'oz – substrat; haydamoq – frezalamoq; chiroyli – implitsit Avvalombor shuni ta'kidlab o'tish kerakki, so'zlarning birinchisi keng qo'llaniladi va har bir savodli odamga tushunarli hisoblanadi. Biroq, ushbu ta'rifni misollarning ikkinchi qismidagi so'zlarga nisbatan qo'llab bo'lmaydi. Chunki, ular o'ta maxsus ilmiy va ishlab chiqarishga aloqador tushunchalarni ifodalab, faqatgina fan va texnikaning aniq sohalaridagina qo'llaniladi. Shunday qilib, ilmiy va ishlab chiqarishga oid terminlarni boshqa umumxalq leksikasi so'zlaridan dastlabki farqi shundaki, ular maxsus ilmiy va texnik tushunchalarni anglatadi. Terminlar, shuningdek, boshqa oddiy so'zlardan o'zining yuqori ma'noviy aniqligi bilan ham farq qiladi. Buni umumiste'moldagi to go – bormoq fe'li bilan to mill – frezalamoq texnik terminini qiyoslaganda ko'rish mumkin. Terminlarning yuqori aniqligi ularning maxsus lug'atlarda alohida qayd

qilinishi va ta'riflanishi bilan ta'minlanadi. Terminlarning aniqligi, asosan, ularning asliga muvofiq ma'nosidandir. Terminlarning asl ma'nosi (yoki ularning semantik tuzilishi) odatda ularning haqiqatdagi ma'nosi bilan qisman mos keladi. Masalan, atomoxod terminining asl, aynan ma'nosi qandaydir predmetning atom energiyasi yordamida bir joydan ikkinchi bir joyga ko'chishini anglatadi. Bu terminning haqiqiy, amaldagi ma'nosi esa – «atom dvigateliga ega bo'lgan kema». Terminning asl ma'nosi, yoki aniqroq aytadigan bo'lsak, uning semantik tuzilishi predmet (narsa yoki hodisa)ning eng muhim xususiyatlaridan birini aks ettirishi lozim.

### XULOSA

Xulosa qilib aytganda, terminologiyada ma'no tuzilishi (semantik struktura, matritsa) bevosita ilmiy to'g'ri tushunish, berilgan tushunchaning aniq tavsifi va tasnifi bilan bog'liq. Aniq ilmiy tavsif va tasnifga ega bo'lmagan tushuncha hodisa, voqeaning o'ziga xosligini aks ettiruvchi aniq nomga ega bo'la olmaydi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi 2000-2005.
2. O'zME birinchi jild Toshkent 2000.
3. Бектемиров Х., Бегматов Э. Мустақиллик даври атамалари. –Тошкент, 2002.
4. Дадабаев Х. Старотюркская дипломатическая терминология в XI-XIV вв. Историко-лингвистический анализ лексики старописьменных памятников. – Ташкент: Фан, 1994. -С.4-13.
5. Дадабоев Х. Ўзбек тилида морфологик усул билан термин яшаш.
6. Лингвист. Илмий мақолалар тўплами УП. – Тошкент, 2016.-Б.4-10.
7. Дадабоев Х. Тарихий ҳарбий терминлар луғати. – Тошкент, 2007.
8. Holnazarovich, B. X. (2024). Badiiy Matn Va uning Lingvopoetik Xususiyatlari. Miasto Przyszłości, 51, 298-303.
9. Berdiev, N. (2020). Лингвопозэтика Масалалари Тадқиқида “Девону Луғотит Турк” Нинг Ўрни. Scienceproblems. uz, 2(2), 7-7.
10. Holnazarovich, B. X. (2024). “Devoni Hikmat” Asarining Tarixiy Leksikani O'rganishdaga Ahamiyati Masalasiga Doir. Miasto Przyszłości, 51, 179-182.
11. Holnazarovich, B. H. (2020). Explanation of yurt building terms with through semantic methods. International Journal of Engineering, Science and Mathematics, 9(6), 9-13.
12. Бердиев, Х. Х. (2016). Метафорические термины в лексике юртовозведения. Язык в сфере профессиональной коммуникации.—Екатеринбург, 2016, 73-76.